

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта  
максус таълим вазирлиги Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети  
Боку давлат университети  
Доғистон давлат университети  
Тожик Миллий университети

Хайдар Алиев номидаги Озарбайжоннинг  
Ўзбекистондаги маданият маркази  
Ўзбекистон-Озарбайжон Дўстлик жамияти  
Ўзбекистон Фалсафа жамияти

«Евроосиё маконида таълим ва тарбия  
мутаносиблигини таъминлашнинг истиқболлари»  
мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий  
конференция материаллари  
(2022 йил 25-26 марта)

Материалы международной конференции  
«Перспективы обеспечения соотношения воспитания  
и образования в Евразийском пространстве»  
(25-26 марта 2022 года)

Materials of the international conference  
«Perspectives of maintaining correlation  
between education and upbringing  
in the Eurasian space»  
(March 25-26, 2022)



Тошкент – 2022

13. Лазарев В.С. Ставринова И.Н. Критерии и уровни готовности будущего педагога к исследовательской деятельности // Педагогика. – 2006 - С.127.
14. Мухамедова З. Таълим фалсафаси. –Тошкент: ТошМИ, 2004. – Б.14-15
15. Саифназаров Г.В. Никитченко, Қосимов Б.У. Илмий ижод методологияси. Ўқув қўлланмаси – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
16. Шермуҳамедова Н. Илмий тадқиқот методологияси. Тошкент: Инновацион зиё. 2021. Б.15.

## NASIRIDDIN TUSIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI

**Abdullayeva Feruza Sharipovna**

BuxDU “Tarix va madaniy meros” fakulteti  
Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq

ta’limi yo’nalishi kafedrasi tadqiqotchisi

Feruza Abdullayeva2021@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda XIII asrda Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo ilm-fanining rivojiga o’z hissasini qo’shgan buyuk qomusiy olim Nasiriddin Tusiyaning ta’lim va tarbiyaga oid “Axloqi Nosiriy” va “Adabul-ul Mutallimin” asarlarida aks etgan ayrim falsafiy fikrlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mamlakat, jamiyat, tarbiya, ta’lim, inson, qadriyat, axloq.

**Аннотация.** В данном тезисе анализированы отдельные философские мнения великого ученого энциклопедиста Насируддина Туси внесшего большой вклад в развитие науки Ирана, Азербайджана и Центральной Азии в XIII веке и его взгляды отраженные в его “Ахлаки Насири” и “Адабул Муталлимин” об образовании и воспитании.

**Ключевые слова:** страна, общества, образование, воспитание, человек, ценность, мораль.

**Annotation.** This thesis analyzes philosophical opinions of the great scientist and polymath Nasiruddin Tusi, who made a great contribution to the development of science in Iran, Azerbaijan and Central Asia in the 13th century, and analyzed his views reflected in works “Ahlaki Nasiri” and “Adab-ul Mutallimin” on education and upbringing.

**Keywords:** country, society, education, upbringing, human, values, moral.

### **Kirish.**

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug’ullanmagan mamlakat turg’unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o’sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy, ham ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to’xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Insonga hayot, atrof-muhitga, jamiyatga moslashish, dunyoda ilohiy

ne'matdan foydalanish va ma'lum taraqqiyotga erishish uchun ta'lim zarur. Tarbiyaning negizida yoshlik davridanoq mehnatga munosabat hal qiluvchi rol sifatida katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ichida ta'lim-tarbiya masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini e'tirof etib davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.[O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi // <https://president.uz/> ].

### Asosiy qism

Ma'lumki Sharq xalqlari orasida shunday aqida amal qilgan: bolaga tug'ilgandan to yetti yoshgacha podshohday, yetti yoshdan to o'n sakkiz yoshgacha tinimsiz mehnat qiladigan qulday, keyingi yoshida o'z do'stiga muomala qilgandek munosabatda amal qilingan.

Ta'lim ham tarbiya kabi jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish, jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi[ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarbiya-uz/> ].

Ma'lumki, zamonaviy jamiyatning kelajagi ta'limga bog'liq. IX-XIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari ilg(or ilmiy tafakkur markazi edi. Bu davrda buyuk mutafakkirlar Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino g'oyalari Evropada ilm-fan va ta'limning keng tarqalishiga yo'l ochgan. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyeparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji ular nomi bilan bog'liqdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'rta asr mutafakkirlarining keyingi avlodlar ilmiy tafakkuri bilan boyitilgan falsafiy g'oyalari shaxsni tarbiyalash usullari, yo'nalishlari va tamoyillarini ishlab chiqishga zamin yaratdi.

XIII asrda Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyoda ilmiy va falsafiy g'oyalarning rivojlanishida markaziy o'rinnidan birini egallagan namoyandalaridan biri Nasiriddin Tusiy ham o'zining falsafiy qarashlarida ta'lim-tarbiya haqida to'xtalib o'tganini ko'rish mumkin.

Darhaqiqat, Nasiriddin Tusiyning ilmiy, falsafiy, siyosiy qarashlarining shakllanishida bir qator ustozlarining mehnati alohida o'ren tutadi. Allomaning birinchi ustozи Faxriddin Domodiy (Фаҳраддин Дамади) bo'lga bo'lsa, ikkinchi ustozи Qutbiddin Misriy (Гутбетдин Мисри), uchinchi ustozи "Zij Akbar al-Hakimi" katalogining muallifi Kamoliddin Yunus bo'lga. [Рамиз Денис Насиреддин Туси- учёный, опередивший века Баку-2014, стр-96]

Allomaning 1235-yilda yozgan "Axloqi Nosiriy" asari uni dunyoga mashhur etgan asarlardan biri edi. Nasiriddin Tusiy bu asarda o'zini mohir va iste'dodli o'qituvchi sifatida namoyon qilar ekan, insonning shakllanishi va rivojlanishi masalasida nafaqat muhitning, balki ta'lim-tarbiya ham muhim rol o'ynashini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, inson "yomon", "yomon niyatli" yoki "ajoyib axloqiy fazilatlarga ega" bo'lib tug'ilmaydi. Bunday fazilatlar insonda tashqi muhit,

tarbiyaning mahsuli natijasida shakllanadi. Har bir insonda ijobiy va salbiy histuyg'ular faqatgina tarbiya orqali yuzaga keladi. [М.Дж.Марданов, Р.М.Асланов,И.Н.Исаев Нравственные и духовные ценности в трудах Насреддина Туси // Перспективы и приоритеты педагогического образования в эпоху трансформаций, выбора и вызовов. VI Виртуальный Международный форум по педагогическому образованию. Казань, 2020. 202-стр.].

Tusiy ta'lim-tarbiyaning asosiy siyomosi sifatida o'qituvchi va pedagoglarning rolini yuqori baholagan, ularning yuksak ma'lumotli, ilmiy, axloqli, talabchan, rahm-shafqatli, shirin so'z, hurmatli bo'lishini muhim, deb hisoblagan.

Tarbiya jarayonida axloqiy poklik, vijdon musaffoligini yuksak qadrlagan holda, mutafakkir bu fazilatlarni bolalar ongiga yoshligidanoq singdirish kerak, deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari Tusiy bolalarni axloqiy tarbiyalashda jazo, maqtash, olqish, mukofotlash kabi rag'batlantirish vositalariga alohida e'tibor bergen. Mutafakkir oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq birinchi qadam sifatida bolada uyat hissini uyg'otish zarur, deb uqtiradi. Ota-oni farzand tarbiyasi bilan shug'ullanganda ularga pul berish yoki ularni moddiy narsalar bilan yo'ldan ozdirishni noto'g'ri, deb hisoblaydi. Alloma tarbiya usuli sifatida bolalar ongi va idrokiga ta'sir etuvchi mantiqiy suhbatlar o'tkazishni, talabchan va mehribon bo'lishni, mehr-muhabbat uyg'otadigan motivlardan foydalanishni tavsiya qilgan. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarning ozoda yurishlari va kiyimlari ozoda bo'lishida ishonch hosil qilishlari kerakligini uqtirib o'tgan. Nasiridin Tusiy "Axloqiy Nosiriy" asarida qiz bola tarbiyasi haqida gapirar ekan, ularga uy-ro'zg'or ishlarini o'rgatish, ular qalbida hayo, iffat kabi fazilatlarni singdirishni muhim deb hisoblagan. [Ruhangiz Aliyeva Nesreddin Tusinin terbiye haqqinda fikrleri. //<https://nuhcixan.az/news/cemiyet>].

Bundan tashqari faylasuf ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini "Adab-ul Mutallimin"("O'qituvchi va ta'lim oluvchilar uchun axloq-odob qoidalari") asarida ham bayon etgan. Mutafakkir insoniy farqlarning mavjudligiga ishora qilib, tarbiyada har bir shaxsning xususiyatlarini hisobga olishni muhim va ahamiyatli deb biladi. U bolalarning kattalarnikidan ko'ra ta'limga berilish ehtimoli ko'proq ekanligini ta'kidlab, bolalikni bola tarbiyasi uchun eng qulay davr deb biladi va ta'lim olish uchun eng yaxshi vaqt - bu yoshlik deb uqtiradi. Nasiriddin Tusiyning "Adab-ul Mutallimin" asarida ilm - fanning ahamiyati, o'g'il va qizlar (bolalar) uchun ta'limga bo'lgan ehtiyoj muhim ahamiyatga egaligi haqida so'z borar ekan, u ta'lim olish uchun faol va mehnatsevar bo'lishi, shuningdek, talaba darsda uxlab qolmasligi uchun ko'p miqdorda suv ichishi, o'z vaqtida ovqatlanishi, sog'lom turmush tarziga amal qilishiga oid g'oyalar ilgari surilgan. [Р.Асланов, Г.Гасanova Чему учили Насреддин Туси в своих педагогических взглядах//<https://azerhistory.com>]

### Xulosa

Xulosa o'rniiga shuni ta'kidlash joizki, ta'lim ijtimoiy hayotga ko'nikish, ijtimoiy qoidalar va mezonlarni qabul qilish uchun muhim omil ekan, har qanday ijtimoiy harakatning muhim yo'nalishini, har qanday xalqning yuksalishini ta'lim-tarbiya bilan belgilashi mumkin. Shunday ekan, faylasuf Nasiriddin Tusiyning

ta’lim-tarbiya haqidagi falsafiy fikrlari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga egadir va bugungi kunda ilm olishda “Ustoz va shogird” tizimini yanada kuchaytirish, bilimli yoshlarni buyuk olimlar qatoriga qo’shilishida mutafakkirlarimiz hamda uztozlarimizning hissalari beqiyosdir.

### Bibliografiya:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/>
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarbiya-uz>
3. Рамиз Денис (2014). Насиредин Туси-учёный, опередивший века Баку: С.96.
4. М.Дж.Марданов, Р.М.Асланов, И.Н.Исаев(2020). Нравственные и духовные ценности в трудах Насреддина Туси // Перспективы и приоритеты педагогического образования в эпоху трансформаций, выбора и вызовов. VI Виртуальный Международный форум по педагогическому образованию. Казань: С. 202.
5. Ruhangiz Aliyeva Nesreddin Tusinin terbiye haqqinda fikirleri. //<https://nuhcixan.az/news/cemiyet>.
6. Р.Асланов, Г.Гасanova. Чему учили Насреддин Туси в своих педагогических взглядах // <https://azerhistory.com>

## ТАЪЛИМ - ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ

Ашурова Сарвиноз Ўраловна  
Қарши Давлат Университети  
“Миллий ғоя маънавият асослари”  
кафедраси ўқитувчиси.

**Аннотация.** Оила инсон камолотининг бош бўғини, давлат тизимининг энг муҳим институти, жамиятимиз негизидир. Шунинг учун ҳам оилани саждагоҳ, ватан оstonадан бошланади, деймиз. Оилада ота-она, aka-ука, опасингил, қариндош-уруғлар орасида бола илк тасаввурларни олади ва уни ўраб турган инсонлар билан ижтимоий муносабатда бўлади. Демак, тарбиянинг асосий ўзагига оиладаёқ пойdevor қўйилади ва бу тарбия унинг бутун умри давомида берилган таълим-тарбияга ўз таъсирини ўтказади. Қадимдан жамият тараққиётининг сифати ва салмоғи оилалардаги жамиятнинг мавқеини белгилайди. Оиладаги соғлом муҳитни доимий равишда сақлаб туриш учун эр-хотин баравар масъулиятли бўлишлари, лозим. Бола ёмон ёки яхши хулқли, феъл-атворли бўлиб туғилмайди. Унинг ижтимоийлашви жараёнида оила муҳити, ота-онанинг, қариндошларнинг, атроф-муҳитдаги кишилар муносабатларининг таъсири ҳал қилувчи рол ўйнайди. Айниқса, ота-онанинг ўзаро муносабати кучли интизомга таянса, мамлакат ва миллат ҳам шунча кучли ва барқарор бўлади.